



Sug'urta olamiga
Sizning ko'prigingiz

Мундарижа Content

2

Kompaniya Bosh direktori murojaati
Message by the Director General of the company

10

Kompaniya haqida
About the Company

14

Sug'urta faoliyati
Insurance activity

24

Investitsiya faoliyati
Investment activity

30

Xalqaro hamkorlik
International cooperation

34

Kompaniya infratuzilmasi
Infrastructure of the Company

40

Ijtimoiy loyihalar
Social projects

42

Auditorlar xisoboti
Auditors' report

46

Bizning mijozlar va hamkorlar
Our clients and partners

48

Litsenziya, reytinglar va sertifikatlar
Licenses, Ratings and Certificates

50

Kompaniyaning hududiy filiallari
Company's territorial branches

Kompaniya Bosh direktori murojaati

Hurmatli xonimlar va janoblar!

Sizing etiboringizga «O'zbekinvest» milliy sug'urta kompaniyasining 2018 yildagi faoliyati haqida hisobotni taqdim etishdan mamnunmiz.

O'tgan yil O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tashabbusi va rahnamoligida davlat va jamiyat faoliyatining barcha sohalarida keng ko'lamli islohotlarni amalga oshirishning davomi bo'ldi.

Xususan, iqtisodiy sohada Hukumat tomonidan to'laqonli bozor tamoyillariga o'tishni ta'minlovchi islohotlar amalga oshirildi, investitsiya muhiti, soliq tizimini tubdan takomillashtirish, kichik, o'rta va yirik biznesni qo'llab-quvvatlash, sanoat, qishloq xo'jaligi, xizmat ko'rsatish sohalar va moliya sektorini modernizatsiya qilish va rivojlantirish, tadbirkorlik sub'ektlarining ishonchli huquqiy himoyasi bo'yicha kompleks chora-tadbirlar ijrosi ta'minlandi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 20 dekabrda "Eksportga ko'maklashish va uni rag'batlantirishni kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga binoan «O'zbekinvest» milliy sug'urta kompaniyasiga eksport kreditlari va operatsiyalarini sug'urtalash vazifasi yuklatildi, bu esa tovar, ish va xizmatlarni eksport qiluvchi mahalliy eksportchilarni har tomonlama sug'urta qoplamasi bilan ta'minlash uchun qo'shimcha imkoniyatlar ochdi.

«O'zbekinvest» kompaniyasi moliya sektori va milliy sug'urta bozorini isloh qilish jarayoniga faol jalb etilgan bo'lib, doimiy ravishda raqobatbardoshlikni oshirish, boshqaruvning ilg'or texnologiyalarini joriy etish va kompaniyaning barcha yo'nalishlardagi faoliyatini takomillashtirish bo'yicha "Yo'l xaritalarini" ishlab chiqmoqda va amalga oshirmoqda.

Aholi va biznes uchun zarur bo'lgan yangi sug'urta mahsulotlarini ishlab chiqish, sug'urta xizmatlari sifatini oshirish va ularning puxta o'ylangan marketingi, shuningdek faoliyat geografiasini kengaytirish natijasida 2018 yilda 2017 yil yakunlariga nisbatan 134 foiz o'sish taminlanib, 169 mlrd. so'm hajmida sug'urta mukofotlari yig'ildi.

2018 yilda hududlarda, ayniqsa chekka qishloq joylarida sug'urta faoliyatini tubdan rivojlantirish hamda shahar va qishloq aholisini ixtiyoriy va majburiy sug'urta tizimiga faol jalb qilish sa'y-harakatlari natijasida ushbu segmentda sug'urta mukofotlarini o'tgan yilga nisbatan 2 baravar oshishiga imkoniyat berib, kompaniya hududiy filiallarning umumiy tushumdagi jismoniy shaxslar bo'yicha ulushini 25 foizdan 35 foizgacha o'sishiga olib keldi.

Reklama va marketing faoliyati kuchaytirildi, xususan, mavjud va potentsial mijozlar o'rtasida kompaniyaning imijini oshirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirildi, mijozlar uchun bir qator jozibador marketing aksiyalari o'tkazildi, xususan, "Jahon futboli ishqibozi" aksiyasi o'tkazilib, ixtiyoriy sug'urta qilingan mijozlardan 8 nafari Rossiyada o'tkazilgan futbol bo'yicha FIFA-2018 jahon chempionatining muhim o'yinlarini tomosha qilish uchun yo'llanmalarni qo'lga kiritdi.

Shu bilan birga, "Dubayga sayohat" aksiyasi tashkil etilib, majburiy avtojavobgarlik sug'urtasi bo'yicha sug'urtalangan mijozlardan 10 nafari sayohat qilish va ushbu kurortning eng yaxshi mehmonxonalarida dam olish uchun yo'llanmalar bilan taqdirlandi.



Message by the Director General of the Company

Dear Ladies and Gentlemen!

Uzbekinvest National Insurance Company has the honor to present for your attention the activity report for 2018.

Last year was continuation of the implementation of large-scale reforms within all spheres of activity of the state and society, carried out on the initiative and under the leadership of the President of the Republic of Uzbekistan Shavkat Mirziyoyev.

In particular, in the economic sphere, the Government implemented reforms to ensure the transition to full-fledged market principles, including implementation of the set of measures to radically improve the investment climate, tax system, to support small, medium and large businesses, to modernize and develop industries, agriculture, services and financial sector, to provide reliable legal protection to business entities.

According to decree of the President of the Republic of Uzbekistan dated 20th December 2018 "On Measures to Strengthen Export Facilitation and Promotion" Uzbekinvest National Insurance Company was entrusted with the functions for insurance of export credits and operations, which opened up additional opportunities for providing comprehensive insurance coverage to national exporters of goods, works and services.

Being actively involved in the process of reforming the financial sector and the national insurance market, the company develops and implements Road maps on an ongoing basis to improve competitiveness, introduce best practices and management technologies, enhance the company's activities in all areas.

As a result of development of new, actual for the population and business insurance products, improvement of the quality of insurance services and their thoughtful marketing, as well as widening the geography of activities, according to the results of 2018 insurance premiums were collected in the amount of 169 bn. UZS, with growth of 134% by the end of 2017.

In 2018, a number of measures were taken to fundamentally develop insurance activity in the regions, especially in distant rural areas, and actively attract the urban and rural people to the voluntary and compulsory insurance systems, which made it possible to collect insurance premiums in this segment with an increase twice as much as compared with the same period of the last year and led to an increase in the share of individuals in the total collection of the regional branches of the company from 25% up to 35%.

Advertising and marketing activities were intensified, in particular, a set of events was carried out to promote the image of the company among existing and potential customers. As a result of "World Football Fan" campaign 8 winners out of the number of voluntary insurance clients were granted a trip to visit the most important matches of the 2018 FIFA World Cup held in Russia.

Kompaniya Bosh direktori murojaati

Message by the Director General of the Company

O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining 27-yilligi bayrami arafasida "Men O'zbekistonni sevaman" marketing aksiyasi o'tkazildi. Mijozlarni rag'batlantirish va sug'urta himoyasi afzalliklarini tushuntirishga qaratilgan tadbirlar davom etmoqda.

2018 yilda biz xodimlarning professional darajasi o'sishiga alohida e'tibor berdik. Ushbu davrda 424 nafar xodim yoki jami xodimlarning 76 foizi respublikada, shuningdek Buyuk Britaniya, Yaponiya, Chexiya, Rossiya va Hindistonning xalqaro o'quv markazlarida o'qidilar, qayta tayyorlandilar va malaka oshirdilar.

Yangi mijozlarni jalb qilish bo'yicha olib borilgan faol sa'y-harakatlar natijasida tuzilgan sug'urta shartnomalari soni 2018 yilda 2017 yildagi ko'rsatkichdan 1,9 baravar ko'p bolib, 415 mingdan oshdi. Bunda, tuzilgan sug'urta shartnomalari bo'yicha qabul qilingan majburiyatlarining hajmi 102,2 trln. so'mni, ya'ni 12,2 mlrd. AQSH dollari ekvivalentini tashkil etdi.

2018 yilda 18 ta yangi hududiy sug'urta bo'limi ochildi, tuman va shahar bog'inidagi sug'urta bo'limlari tomonidan yig'ilgan sug'urta mukofotlari hajmi 1,9 baravarga o'sib, 37,3 mlrd. so'mni tashkil etdi, bu esa «O'zbekinvest» kompaniyasi tomonidan qishloq va kichik shaharlar aholisi va korporativ mijozlarini sug'urta xizmatlari bilan faol qamrab olinishidan dalolat beradi.

O'tgan yili 9 846 ta sug'urta da'volari ko'rib chiqilib, ular bo'yicha 32,3 mlrd. so'mdan ortiq to'lab berildi va umumiy sug'urta mukofotining 19 foizini tashkil etdi.

Investitsiya faoliyati faol rivojlanib, 2018 yil yakunlari bo'yicha investitsiyalar hajmi 112 foizga o'sdi va 360,2 mlrd. so'mni tashkil qildi, bunda investitsiya faoliyatidan olingan daromadlar 2017 yilning shu davriga nisbatan 3 baravarga oshdi va 32,2 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Kompaniyaning 2018 yildagi foydasi 9,1 mlrd. so'mni tashkil etdi.

«O'zbekinvest» kompaniyasi ko'p yillardan buyon eksport kreditlari va investitsiyalarni sug'urtalash bo'yicha agentliklarning jahon assotsiatsiyasi hisoblanuvchi kreditlar va investitsiyalarni sug'urtalovchilari Xalqaro ittifoqi – Bern ittifoqining to'la huquqli a'zosi. Ushbu ittifoq dunyoning barcha qit'olari vakillaridan iborat 70 dan ortiq mamlakatning 85 tashkilotini birlashtiradi. Kompaniya Islom hamkorlik tashkilotiga a'zo davlatlarning 40 dan ortiq sug'urta va qayta sug'urta tashkilotlarini birlashtiruvchi O'mon ittifoqi – Professional forumining ham to'la huquqli a'zosi.

Faol xalqaro sug'urta faoliyatini amalga oshirish natijasida O'zbekiston Respublikasini rivojlantirish Davlat dasturlari doirasida AQSH, Yaponiya, Janubiy Koreya, Germaniya, Rossiya Federatsiyasi, Shveysariya va boshqa mamlakatlar xorijiy investorlari va pudratchilari tomonidan O'zbekistonda muddati 2024 yilgacha bo'lgan amalga oshirilayotgan loyihalar bo'yicha qabul qilingan majburiyatlar hajmi 20 mlrd. AQSH dollarini tashkil etdi.

Mazkur yo'nalishda kompaniya "Best Meridian Insurance Co", "Marsh & McLennan Companies" (AQSH), AON, "Willis Towers Watson" (Buyuk Britaniya), "Tokyo Marine & Nichido Fire Insurance Co. Ltd." (Yaponiya), "Allianz SE" va "HDI Global Network AG" (Germaniya), AXA (Fransiya), "People Insurance Company of China", Bank of China Insurance (Xitoy), "Korean Reinsurance Company" (Koreya), «Rosgosstrax», «Sogaz», "Malakut" (Rossiya), "Zurich Insurance Group" (Shveysariya) va boshqalar kabi dunyoning yetakchi transmilliy sug'urta va qayta sug'urta hamda sug'urta brokerlari bilan hamkorlikni yo'lga qo'ygan.

Biz ushbu ijobiy o'zgarishlarni ta'sisshilarimiz, mijozlarimiz va hamkorlarimiz ko'magisiz amalga oshirib bo'lmagan bo'lishini yaxshi tushunamiz. Shuningdek, biz sug'urta bozorini faol isloh qilish va

Besides, the "Trip to Dubai" campaign was organized among compulsory motor liability insurance customers, the 10 winners of which were rewarded with trips to travel and rest in the best hotels in Dubai.

On the eve of the celebration of the 27th anniversary of independence of the Republic of Uzbekistan, "I love Uzbekistan" marketing campaign was held. Activities directed to encourage the clients and explain the benefits of insurance are underway.

In 2018, we paid special attention to the growth of professional level of the staff. During this period, 424 employees or 76% of the total staff of the company went through training, retraining and advanced training in the local as well as international training centers in the UK, Japan, Czech Republic, Russia and India.

As a result of active efforts to attract new customers, the number of insurance agreements concluded in 2018 amounted to more than 415 thousand units, which is 1.9 times more than the similar indicator of 2017. At the same time, the volume of the obligations accepted under the concluded insurance agreements was equal to 102.2 tn UZS, which is equivalent to 12.2 bn USD.

In 2018, 18 new regional insurance branches were opened, the insurance premiums collected by regional and city level insurance divisions amounted to 37.3 bn UZS, and increased by 1.9 times, confirming the active insurance services provision to population and the corporate clients in rural areas and small towns by Uzbekinvest company.

Last year, after review of about 9,846 insurance claims more than 32.3 bn UZS were paid, which stands for 19% of the total premium collected.

As a result of active development of investment activity, the volume of investments at the end of 2018 increased by 112% and made up to 360.2 bn UZS, while the income from investment activity increased by 3 times compared with the similar indicator of 2017, and totaled 32.2 bn UZS.

The company's profit in 2018 amounted to 9.1 bn UZS.

For many years, Uzbekinvest company has been a full member of the Berne Union - the International Union of Credit and Investments Insurers, a global association of export credit and investment insurance agencies. The Union consolidates 85 organizations from more than 70 countries, representing all continents. The company is also a full member of the Aman Union - a Professional Forum, assembling more than 40 leading insurance and reinsurance companies of Islamic Cooperation Organization member countries.

Followed by active international insurance activities, the volume of obligations accepted under the projects implemented in Uzbekistan by foreign investors and contractors from the USA, Japan, Korea, the Federal Republic of Germany, the Russian Federation, Switzerland and other countries, within the framework of state development programs of the Republic of Uzbekistan, reached 20.0 bn USD, valid until 2024.

In this direction, the company cooperates with leading multinational insurance and reinsurance companies and insurance brokers such as Best Meridian Insurance Co, Marsh & McLennan Companies (USA), AON, Willis Towers Watson (Great Britain), Tokyo Marine & Nichido Fire Insurance Co. Ltd. (Japan), Allianz SE and HDI Global Network AG (Germany), AXA (France), People Insurance Company of China, Bank of China Insurance (China), Korean Reinsurance Company (Korea), PJSC IC Rosgosstrakh, IC Sogaz, RNPk, Malakut (Russia), Zurich Insurance Group (Switzerland), etc.

Kompaniya Bosh direktori murojaati

Message by the Director General of the Company

qo'llab-quvvatlashning samarali milliy tizimini yaratish davrida duch kelayotgan muammolarni hal qilishdagi javobgarligimizni ham anglaymiz.

Mahalliy sug'urta bozorida raqobat shiddat bilan rivojlanmoqda va mijozlarimizga eng yuqori xalqaro standartlarga javob beradigan va yuqori darajadagi xizmat ko'rsatish madaniyatini ta'minlaydigan zamonaviy sug'urta xizmatlarini taqdim etish orqali bozorda muvaffaqiyatli faoliyat yuritishimiz mumkin.

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda biz o'z oldimizga mamlakatda amalga oshirilayotgan barcha islohotlarning umumiy kontekstidan kelib chiqib yangi, keng qamrovli va tizimli vazifalarni qo'ydik, ularning eng ustuvor yo'nalishlari quyidagilar:

- milliy eksportni, shu jumladan eksport shartnomalarini, eksport kreditlarini sug'urtalash va eksport qiluvchilarni qo'llab-quvvatlashning boshqa turlarini sug'urtalash bo'yicha xizmatlarni tubdan rivojlantirish va o'stirish;

- aholi va tadbirkorlik subyektlari uchun dolzarb va arzon narxdagi sug'urta mahsulotlarini ishlab chiqish va bozorga kiritish;

- aholi uchun onlayn sug'urtani to'laqonli joriy qilish va internet-do'kon xizmatlarini ommaviy rivojlantirish;

- kompaniya faoliyatida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish va kompaniyaning axborot xavfsizligini ishonchlilik darajasini ta'minlaydigan biznes-jarayonlarni avtomatlashtirish;

- sug'urta mahsulotlari va xizmatlarini reklama qilish va marketing faoliyatining yagona, o'zaro bog'langan tizimini yaratish, shuningdek aholining keng qatlami va biznes hamjamiyati o'rtasida kompaniyaning ijobiy imijini yaratish;

- kompaniyaning kadrlar boshqaruvini takomillashtirish, shu jumladan yosh va istiqbolli kadrlarni jalb qilish, tanlash va rivojlantirishning samarali mexanizmlarini ishlab chiqish va joriy etish, shuningdek, mamlakatdagi va chet eldagi o'quv markazlarida barcha darajadagi xodimlarni "uzluksiz tayyorlash" va malaka oshirish konsepsiyasini amalga oshirishni davom ettirish;

- mijozlarga sotuvdan keyingi xizmat ko'rsatish doirasida yangi xizmatlarni joriy etish orqali assistans xizmatini rivojlantirish, shuningdek kompaniyaning "koll-tsentr"ini xizmat ko'rsatuvchi va barcha sug'urta mahsulotlari ko'lamini sotuvchi markazga aylantirish, shu jumladan onlayn rejimida va 24/7 tamoyili asosida mijozlar bilan o'zaro aloqani ta'minlash.

Shubhasiz, 2019 yil kompaniyamizning jadal va barqaror rivojlanishining navbatdagi yili, sug'urta biznesining yangi sifat darajasiga erishish va milliy sug'urta bozorini rivojlantirish yili bo'ladi.

«O'zbekinvest» jamoasi nomidan mijozlarimizga, hamkorlarimizga va ta'sischilarimizga kompaniyamizni qo'llab-quvvatlaganliklari va unga ishonch bildirganlari uchun minnatdorman.

Hurmat bilan,

Bosh direktor
R. Azimov

We are well aware that these positive changes would not be possible without strong support by our shareholders, customers and partners.

We also recognize our responsibility to address the challenges facing us during the period of active insurance market reforms and creation of the efficient national export support system.

Competition in the domestic insurance market is rapidly progressing, and our successful presence in the market is only possible under condition that we can offer our customers a comprehensive complex of modern, required and adhering to the highest international standards insurance services ensuring a high level of service culture.

Taking into account the above, we set new, ambitious and systemic tasks in the general context of all the reforms carried out in the country, the most priority of which are:

- fundamental development and growth of insurance services to support national export, including insurance of export contracts, export loans, and other types of support for the exporters;

- development and implementation of innovative, urgent and affordable insurance products for population and business entities;

- full implementation of online insurance and wide development of online sale services for the population;

- introduction of modern information and communication technologies into the company's activities and the automation of business processes, ensuring reliable level of information security of the company;

- creation of a single, interconnected marketing and advertising system aimed to promote insurance products and services, as well as to create a positive image of the company among the wide population and business community;

- improvements in management of company personnel, including development and implementation of effective mechanisms for attracting, selecting and training of young and perspective personnel, as well as the continued implementation of the "lifelong learning" concept and advanced training for employees at all levels in training centers in the country and abroad;

- development of assistance services by introducing new services within post-sales customer service as well as reorganization of the "Call center" of the company to the center for service and sales across the entire spectrum of insurance products, including online service to ensure interaction with customers on a 24/7 basis.

There is no doubt that 2019 will be another year of dynamic and sustainable development of our company, the year of achieving higher quality of the insurance business and development of the national insurance market.

On behalf of Uzbekinvest team, I express gratitude to our customers, partners and founders for the support and trust granted to our company.

Respectfully,

R. Azimov
Director General





AMIR TEMUR KO'PRIGI, 14 ASR,
QARSHI O'ZBEKISTON
AMIR TEMUR BRIDGE, 14th CENTURY,
KARSHI, UZBEKISTAN

Kompaniya haqida umumiy ma'lumot

“O'zbekinvest” eksport-import milliy sug'urta kompaniyasi

Umumiy sug'urta tarmog'ida o'z faoliyatini olib boradi va sug'urta faoliyati klassifikatoriga ko'ra mavjud 17 turdagi sug'urtaning barchasi bilan shug'ullanadi.

Tashkil etilgan sanasi

“O'zbekinvest” milliy sug'urta kompaniyasi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 21.01.1994 yildagi PF -745-sonli Farmoni va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 13.04.1994 yildagi 206-sonli Qaroriga asosan tashkil etilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 18.02.1997 yildagi PF-1710-sonli Farmoni va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 28.02.1997 yildagi 113-sonli Qaroriga asosan “O'zbekinvest” eksport-import milliy sug'urta kompaniyasi etib qayta tashkil qilingan.

Ustav jamg'armasi

60 mln. AQSH dollari (ekvivalentida).

Ta'sisчилari

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi - 50 mln. AQSH dollari (ekvivalentida).

O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyat Milliy banki - 10 mln. AQSH dollari (ekvivalentida).

Kompaniya missiyasi

Maqbul narxlardagi yuqori sifatli sug'urta xizmatlarini taqdim etish orqali O'zbekiston Respublikasi sug'urta sohasining rivojlanishiga ko'maklashish.

“O'zbekinvest” kompaniyasining ustav vazifalari

Milliy eksport qiluvchilarning iqtisodiy manfaatlarini chet ellarda xorijiy sheriklar tomonidan qabul qilingan shartnoma majburiyatlarining bajarilishiga to'sqinlik qiluvchi siyosiy, tijorat va tadbirkorlik tavakkalchiliklaridan sug'urta himoyasi bilan ta'minlash.

Texnologiyalar, tovarlar va xizmatlar eksportini mablag' bilan ta'minlash uchun kreditlar ajratuvchi O'zbekiston Respublikasi rezidentlari bo'lgan tijorat banklariga eksport kreditlarini sug'urta qilishning xalqaro tamoyillariga muvofiq sug'urta kafolatlari berish.

O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotiga sarmoya sarflayotgan xorijiy va mamlakatimiz investorlarining mulkiy va shaxsiy manfaatlarini kompleks sug'urta himoyasi bilan ta'minlash.

Xalqaro, chet el, mamlakatimizning davlat va xususiy sug'urta tashkilotlari bilan bevosita hamkorlikni rivojlantirish, birgalikda sug'urta faoliyatini va qayta sug'urta qilish operatsiyalarini amalga oshirish.

About the Company

Uzbekinvest National Export-Import Insurance Company

Uzbekinvest operates in the market in general insurance field and provides insurance in all 17 insurance classes according to the insurance activities classifier.

Date of Establishment

Uzbekinvest National Insurance Company was established in 1994 in accordance with Decree of the President of the Republic of Uzbekistan № PF-745 dated by 21 January 1994 and Resolution of the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan № 206 dated by 13 April 1994.

The Company was reorganized into Uzbekinvest National Export-Import Insurance Company in accordance with Decree of the President of the Republic of Uzbekistan № PF-1710 dated by 18th February 1997 and Resolution of the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan № 113 dated by 28th February 1997.

Share capital

60 M USD (in equivalent).

Shareholders

Ministry of Finance of the Republic of Uzbekistan - 50 M USD (in equivalent).

National Bank for Foreign Economic Activity of the Republic of Uzbekistan - 10 M USD (in equivalent).

Mission of the Company

To contribute to development of insurance industry of the republic by providing high quality insurance services by affordable prices.

Statutory objectives of Uzbekinvest company

To provide comprehensive insurance protection for the economic interests of national exporters in abroad against political, commercial and entrepreneurial risks impending fulfillment of contractual obligations by the foreign partners.

To provide insurance guarantees to commercial banks-residents of the Republic of Uzbekistan providing loans for financing the export of technologies, goods and services in accordance with international principles of export credit insurance.

To provide comprehensive insurance protection for property and personal interests of foreign investors investing into the economy of the Republic of Uzbekistan.

To develop direct cooperation with international, foreign, domestic state and private insurance organizations to perform joint insurance and reinsurance operations.




MINORA KO'PRIGI, 19 ASR,
LONDON, BUYUK BRITANIYA
TOWER BRIDGE, 19TH CENTURY,
LONDON, UK

Yig'ilgan sug'urta mukofotlari strukturasi (mlrd.so'm)

2018 yilda jami 169.12 mlrd. so'm sug'urta mukofotlari yig'ilgan, ushbu ko'rsatkich 2017 yilga nisbatan 38.28 mlrd. so'mga ko'p bo'lgan va o'sish 129.3 foizni tashkil qilgan.

Structure of insurance premiums collected (bn UZS)

By the results in 2018, insurance premium was collected in the amount of 169.12 bn UZS, this indicator rose by 38.28 bn UZS with 129.3% growth compared to 2017.



Sug'urta mukofotlarining o'sish dinamikasi (mln. so'm)
Insurance premiums growth dynamics (M UZS)



Yig'ilgan sug'urta mukofotlarining aksariyat qismi (80.2%) ixtiyoriy sug'urta turlariga to'g'ri kelishini alohida ta'kidlash joiz.


Ushbu ko'rsatkich 2018 yilda 135.56 mlrd. so'mni tashkil etib, 2017 yilga nisbatan 136.8% ga o'sgan.

Majburiy su'gurta turlari bo'yicha kelib tushgan sug'urta mukofotlari hajmi 2018 yilda 36.65 mlrd. so'mni tashkil qildi va ko'rilyotgan davr ichida 103% o'sgan.

It should be noted that the largest share of insurance premiums (80.2%) is related to voluntary insurance.

This figure reached 135.56 bn UZS in 2018 with 136.8% increase compared to the figures reached in 2017.

Insurance premiums on compulsory types of insurance in 2018 amounted to 36.65 bn UZS and increased by 103% in the period under review.




Sug'urta shartnomalari tuzilishi strukturasi (dona)

Structure of concluded insurance agreements (units)

2018 yil yakunlari bo'yicha kompaniya tomonidan jami 415 168 ta sug'urta shartnomalari tuzilgan.

At the end of 2018, the company concluded 415,168 insurance agreements, 3.3 times more than in 2015, while the growth compared to the previous year amounted 183.4%.


Bu ko'rsatkich 2015 yilga nisbatan 3.3 barobarga, o'tgan 2017 yilga nisbatan esa 183.4% ko'p bo'lgan.



Sog'liq va hayot sug'urtasi (549.2%), javobgarlik sug'urtasi (520.5%) va moliyaviy qaltisliklar sug'urtasi (366.6%) kabi sug'urta turlari bo'yicha tuzilgan sug'urta shartnomalari soni keskin o'sganini kuzatish mumkin.


It is worth noting, that the number of concluded insurance agreements for such types as life and health insurance (549.2%), liability insurance (520.5%) and financial risk insurance (366.6%) increased significantly.

Tuzilgan sug'urta shartnomalari dinamikasi (dona)
Concluded insurance agreements dynamics (units)



Ixtiyoriy sug'urta turlari bo'yicha tuzilgan shartnomalar soni ko'rilayotgan davrda 476.4% ga o'sganini va 2018 yil yakuni bo'yicha 203 460 ta dona shartnomalarni tashkil qilganini alohida ta'kidlab o'tish zarur.

Over the period under review, the number of concluded insurance agreements for voluntary types of insurance increased by 476.4% and amounted to 203,460 units at the end of 2018.



Kompaniya tomonidan to'lab berilgan sug'urta qoplamalari strukturasi (mlrd. so'm)


2018 yilda sug'urtalanuvchilarga jami 33.05 mlrd. so'm sug'urta qoplamalari to'langan, ushbu ko'rsatkich 2017 yilga nisbatan 13.52 mlrd. so'mga ko'p bo'lgan yoki o'sish 169.3 foizni tashkil qilgan.

Kompaniya tomonidan 2018 yilda to'lab berilgan sug'urta qoplamalar-ning 50 foizi majburiy sug'urta turiga, 34 foizi moliyaviy qaltisliklardan sug'urtalash, 9 foizi mol-mulk va 7 foizi boshqa sug'urta turlariga to'g'ri kelgan.


Structure of insurance payments of the company (bn UZS)

In 2018, the policyholders were paid insurance indemnities in the amount of 33.05 bn UZS with 169.3% growth, which is 13.52 bn UZS more compared to 2017.

At the end of 2018, 50% of payments made by the company accounted for compulsory insurance, 34% for insurance against financial risks, 9% for property insurance and 7% for other types of insurance.



Sug'urta qoplamalarining o'sish dinamikasi (mln. so'm) Insurance payments growth dynamics (M UZS)




Ixtiyoriy sug'urta turlari bo'yicha to'lab berilgan sug'urta qoplamalari hajmi 2018 yil yakuni bo'yicha 16.44 mlrd. so'm yoki o'sish 105.2% tashkil etdi.

Insurance payments paid under voluntary types of insurance at the end of 2018 amounted to 16.44 bn UZS or increased by 105.2%.

Majburiy sug'urta turlari bo'yicha to'lab berilgan sug'urta qoplamalari hajmi ko'rilayotgan davrda 452.6%ga o'sgan yoki 16.61 mlrd. so'mni tashkil etdi.

The amount of insurance indemnities paid by compulsory insurance increased by 452.6% or amounted to 16.61 bn UZS.



Sug'urta faoliyati

Sug'urta majburiyatlari strukturasi (trln.s'om).


2018 yilda olingan sug'urta majburiyatlari 91.5 trln. so'mni, ushbu ko'rsatkich 2015-yilga nisbatan 40.3 trln. so'mga ko'pni yoki o'sish 178.59 foizni tashkil qilgan.

Olingan sug'urta majburiyatlarining aksariyat qismi mol-mulk sug'urtasi (77.05 trln. so'm) va majburiy sug'urta turlari (8.78 trln. so'm) to'g'ri keladi.

Structure of insurance obligations (tnUZS).

In 2018, the Company accepted insurance liabilities in the amount of 91.5 tn UZS which is 40.3 tn UZS more than in 2015, the growth was 178.9%.


Most of the insurance obligations were taken in property insurance - 77.05 tn UZS and compulsory insurance - 8.78 tn UZS.



Insurance activity

Sug'urta majburiyatlari dinamikasi (trln. s'om)

Insurance obligations dynamics (tn UZS)




Kompaniya sug'urta zaxiralari hajmining o'sish dinamikasi (mlrd. so'm).

2018 yil yakuni bilan kompaniyaning sug'urta zaxiralari 145,7 mlrd. so'mni tashkil etgan, ushbu ko'rsatkich 2015 yilga nisbatan 76.4 mlrd. so'mga ko'pni yoki o'sish 210.0 foizni tashkil etgan.

Dynamics of the company's insurance reserves growth (bn UZS)

By the results of 2018 this indicator was equal to 145.7 bn UZS, which is 76.4 bn UZS more in comparison with the same period of 2015, with 210% growth.





PETROVSKIY KANALIDAGI KO'PRIK,
21 ASR, SANKT PETERBURG, ROSSIYA
BRIDGE OVER THE PETROVSKY CHANNEL,
21st CENTURY, SAINT PETERSBURG, RUSSIA



Investitsiya faoliyati

Investment Activity

Kompaniyaning investitsiya faoliyati

Investitsiya va moliya operatsiyalari kompaniya faoliyatining muhim qismi hisoblanadi. Kompaniya sug'urta biznesi hajmi o'sishi bilan uning ahamiyati ham oshmoqda. Kompaniya daromadlilik va qaltislik darajasi o'rta qo'yilmalarni amalga oshirib, barqaror investitsiya siyosatini olib boradi.

Kompaniya investitsiya portfeli kredit resurslari va fond bozorida mavjud vositalarni hisobga olib differensiyalashtirilgan. Bank depozitlari, pay va aksiyalar, depozit sertifikatlari kompaniyaning milliy valyutadagi asosiy jamg'armalari hisoblanadi.

Ta'kidlash kerakki, "O'zbekinvest" bank moliya vositalarida investitsiya faoliyatini amalga oshirishda O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki, "Ipoteka-Bank" ATIB, "Xalq banki" TB, "Asaka bank" ATB, "Qishloq qurilish bank" ATB, "SanoatQurilishBank" ATB kabi yuqori darajadagi ishonchlilikka ega banklar bilan, shuningdek, Barklayz Bank (London), "Aziya Invest Bank" ATB (Rossiya) kabi yetakchi xorijiy banklar bilan hamkorlik qiladi. 2018 yil yakunlari bo'yicha Kompaniya investitsiya portfeli strukturasi xorijiy korxonalar aksiyalarida 51.1 mln. AQSH dollari ekvivalentini tashkil etdi.

Investment Activity of the Company

Investment and financial activities are considered an important component in the activity of the company. With insurance business growth, their role becomes more important. In its investment activities, the Company applies moderate investment policy under which profitability and investment risk levels are close to the market average to the utmost.


